

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
ROMAN-GERMAN FILOLOGIYASI FAKULTETI


FRANSUZ TILI FONETIKASI VA GRAMMATIKASI KAFEDRASI

ABDUHALILOVA ZUNIRA ABDUMO'MINOVNA

“ZARURIYAT” KONSEPTI ASOSIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR
PARADIGMASIGA XOS XUSUSIYATLAR
(fransuz tili materialida).

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar : f.f.n. Suvonova N.N.



Samarqand-2012

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. TILSHUNOSLIKDA KONSEPT TUSHUNCHASI VA UNDA MODALLIK KATEGORIYASI	
1. Tilshunoslikda konsept nazariyasining paydo bo'lishi	6
2. Modallik kategoriyasining tillar misolidagi aksi	9
3. Roman tilshunosligida modallik kategoriyasi	24
I bobga xulosa	31
II BOB. FRANSUZ FRAZELOGIYASINING ASOSIY TAMOIYILLARI	
1. Fransuz frazeologiyasi alohida fan sifatida	33
2. Fransuz frazeologiyasida modallik tushunchasi	41
II bobga xulosa	42
III BOB. FRANSUZ FRAZELOGIYASIDA “ZARURIYAT” KONSEPTI ASOSIDAGI BIRLIKLAR PARADIGMASIGA XOS XUSUSIYATLAR	
1. Falloir fe'li ishtirokida “Zaruriyat” semantikasining ifodalanish xususiyatlari.....	44
2. Devoir fe'li ishtirokida “Zaruriyat” semantikasining ifodalanish xususiyatlari.....	47
3.“Zaruriyat” semantikasini ifodalovchi maxsus iboralar	51
III bobga xulosa	52
XULOSA	54
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	58
ILOVA. “Zaruriyat” ma'nosini ifodalovchi frazeologik birliklarning fransuzcha-o'zbekcha lug'ati	64

K I R I S H

Mavzuning dolzarbligi. Tilshunoslikning eng serqirra va eng qiziqarli hamda hozirgi kunda o'ta dolzarb lingvistik muammolarni o'z ichiga olgan bo'limlaridan biri hisoblangan frazeologiya ilmiy tadqiqotlar obyekting markaziy o'rinlarida turadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi ham hozirgi vaqtda fransuz frazeologiyasidagi koseptologik muammolar tilshunoslarning oldida turgan dolzarb masalalardan biri ekanligi bilan bog'liq. Shunday ekan, o'z bitiruv malakaviy ishimizga bunday muammoni tanlaganimiz bejiz emas albatta. Ushbu kichik bir tadqiqot fransuz tili frazeologiyasini har tomonlama chuqur o'rganish uning ochilmagan qirralarini namoyon etishda ma'lum darajada o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, bu borada keng darajada ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganligining guvohi bo'lish mumkin. Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, fanni ulkan bir daraxt deb tasavvur qilsak, ilmiy tadqiqotlar uning ildizini tashkil qiladi¹. Binobarin, fransuz tilidagi frazeologik birliklar va ularning struktur-semantik xususiyatlari xususidagi ushbu kichik bir tadqiqot ham tilshunoslikdagi ayrim muammolarning yechimini topish jarayonida o'ziga xos o'ringa ega..

Tadqiqot maqsadi. Bitiruv malakaviy ishning oldiga qo'yilgan asosiy maqsad fransuz frazeologiyasidagi "zaruriyat" konsepti asosidagi frazeologik birliklarni og'zaki nutq va tildagi xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Yuqorida aytib o'tilgan holatlardan kelib chiqqan holda, tadqiqot vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Fransuz frazeologiyasidagi konsept tushunchasining talqinini tavsiflash;
- Modallik ma'nosidagi konseptologik kategoriyalarni namoyon etish;

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон фанлар академияси умумий йиғилишида сўзлаган нуткидан. "Ўзбекистон овози", 1994 й, 9 июль.-Б.1.

- Fransuz frazeologiyasida “zaruriyat” konseptining ifoda shakllarini o’rganish;
- “Zaruriyat” konsepti asosidagi frazeologik birliklar semantikasini tahlil qilish;
- Fransuz frazeologiyasida “zaruriyat” konseptining **devoir** fe’li orqali ifodalanish xususiyatlarini namoyon etish;
- Fransuz frazeologiyasida “zaruriyat” konseptining **faloir** fe’li orqali ifodalanish xususiyatlarini namoyon etish;
- Fransuz frazeologiyasida “zaruriyat” konseptining maxsus qurilmalar orqali ifodalanish xususiyatlarini namoyon etish;

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqot obyektni tilshunoslikning frazeologik qatlami tashkil etsa, tadqiqot predmetini esa, undagi aynan “zaruriyat” konsepti asosidagi frazeologik birliklar tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida diskriptiv, tasviriy, distributiv hamda transformasion va statistik lisoniy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot materialli. Ushbu bitiruv malakaviy ishining tadqiqot materialli fransuz tilidagi “zaruriyat” konsepti asosidagi ibora va idiomalardan iborat.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur ishda frazeologiyaning konseptologik muammolaridan biri, ya’ni “zaruriyat” konseptining ifoda shakllarini, xususan, ma’lum leksik vositalar orqali ushbu konsept tushunchasining namoyon bo’lish usullari va ularning ichki va tashqi sistemasiga xos xususiyatlar tahlil qilinadi. Bajarilgan ushbu tahlil, ya’ni aniqlangan frazeologik holatlar til va nutq hodisalarini farqlash bilan bir qatorda, frazeologik muammolar yuzasidan muhim nazariy xulosalarga kelish imkonini beradi. Ishning tahlil natijalaridan frazeologiya faniga aloqador muammolar yechimini topishda, shuningdek, ushbu fan yuzasilan o’qiladigan maxsus kurslar bo’yicha ma’ruzalar matni yoki o’quv-uslubiy qo’llanmalar yaratish hamda fanni o’qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan ilmiy va badiiy adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, obykti va predmeti hamda amaliy va nazari ahamiyati xususida fikr yuritiladi.

Ishning birnchi bobida frazeologiyadagi mavjud konsept tushunchasi va uning o'rganilish holatiga e'tibor qaratiladi.

Ishning ikkinchi bobida fransuz frazeologiyasidagi "zaruriyat" konsepti asosidagi frazeologik birliklar, ya'ni ibora, turg'un birikma va so'z birikmalari turli lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Ishning xulosa qismida esa ikkala bobdagi kuzatish natijalari umumlashtirilgan holda ishga yakuniy xulosalar chiqariladi.

Ishning adabiyotlar ro'yxatida ishda foydalanilgan nazariy, qomusiy va ent yernet manbalari tartib asosida berib o'tiladi.

Ishning ilova qismida esa ishda foydalanilgan "zaruriyat" konsepti asosidagi frazeologik birliklarning fransuzcha va o'zbekcha varianti alifbo tarzida berilgan.

I BOB
TILSHUNOSLIKDA KONSEPT TUSHUNCHASI VA
UNDA MODALLIK KATEGORIYASI

1. Tilshunoslikda konsept nazariyasining paydo bo'lishi

Mantiqiy faoliyat hosilasi bo'lgan “tushuncha” va kognitiv tilshunoslikda keng miqyosda qo'llanilayotgan “konsept” atamalarini bir xil mazmunda qo'llash mumkinmi? So'zsiz bu ikkala hodisa ham tafakkur birligi sifatida namoyon bo'ladi. Bularning ikkalasini ham boshlang'ich nuqtasi voqelikdagi predmet – hodisaning his qilinishi va obrazli tasavvur qilinishi bilan bog'liq. Paydo bo'lgan hissiy obraz dastlab har bir shaxsda alohida, individual ko'rinishda namoyon bo'ladi. Masalan “gul” bir kishi uchun “atirgul” bo'lsa, boshqasi uchun “rayhon”, yana biri uchun “lola”. Hissiyot va tafakkur faoliyatining yuqori bosqichlarida individual obraz aniq predmeddan aniq uzoqlashib boradi va asl mantiqiy (aqliy) hodisaga aylanadi.

Konsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma'no umumlashmasi yotadi. Konseptning shakllanishi individual obraz tug'ilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo bo'lishi bilan tugaydi. Taniqli faylasuf va psixolog Jerri Fodor voqelikning ongda inikos etish va bu inikosning tafakkutda “qayta ishlanish” jarayonini o'rganayotib, bu jarayonni “tafakkur lisoni” ga o'xshatadi. Chunki “har qanday mantiqiy tasavvur harakatni ma'lum ko'rinishidagi strukturaga ega bo'ladi, hamda bu struktura tabiiy til birligining sintaktik shakli takroriga ishoradir”

Konsept – mental tuzilma bo'lib, u turli tarkibdagi va ko'rinishdagi bilimlar kvanti yoki umumlashmasidir. Konseptlar inson ongida shakllanadigan turli kategoriyalarning asosini tashkil qiladi, bular uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi. Odatda, konseptning umumiy xususiyatlari sifatida uning ichki tuzilish jihatidan aniq ko'rinishga ega emasligi qayd qilinadi, biroq bu fikr unchalik haqiqatga yaqin emas. Zero, konseptning asosini tashkil qiluvchi predmed obrazi yetarlicha aniq va

ikkilamchi o'rinni egallagan bo'laklari mavhumlikka ega bo'lish bilan birgalikda, ular yagona negiz (yadroviy asos) atrofida o'zaro munosabatga kirishib birikadilar. Shu sababli konsept tarkibining tizimiy xarakteriga ega ekanligini e'tirof etish ma'quldir. Uning tizimiy xususiyatlari tuzilish jihatidan murakkab tartibli bo'lishida va bir butun mental tuzilma sifatida idrok qilinishida namoyon bo'ladi.

Predmet – hodisalarning ongli idrok etilishi va ularning tasavvurda obraz hosil bo'lish yo'li bilan jamlanadigan bilim turlicha shakllanadi va har xil xarakterga ega bo'ladi. Bu bevosita turli guruhdagi va tuzilishidagi konseptlar shakllanishiga sabab bo'ladi. Konseptlarning guruhlanishida ularning lisoniy ifodalanish uslublariga tayaniladi. Tadqiqotchilar leksik va frazeologik konseptlar bilan bir qatorda, grammatik (aniqrog'i, sintaktik) konseptlar guruhlarini ham ajratishni taklif qilishmoqda (Babushkin 1996; Voloxina, Popova 1999; Langacker 1978).

Har qanday holda ham egallangan bilimning shakllanishi va tizimlashtirilishning asosiy vositasi til tizimidir. Tafakkur birligi va mental hodisa sifatida yuzaga keladigan konseptning lisoniy voqelanishi ham nutqiy tafakkur faoliyati natijasidir.

Mental tuzilma – konseptning lisoniy belgiga o'tish jarayoni qanday kechish masalasi bahsli mavzudir.

Dastlabki o'rinda konseptning lisoniy modellashuvi ong va til tizimi o'rtasidagi hamkorlikning mahsuli ekanligini unutmaslik kerak. Oldin aytilganidek, konsept shakllanishining boshlang'ich nuqtasi voqelik bo'lagi (predmet) haqidagi tasavvur – obrazning yuzaga kelishidir. Bu obraz oddiy sxema yoki shakl bo'lib qolmasdan balki mazmunli hodisadir. Boshqacha aytganda, sub'yekt obrazning oddiy shaklini ko'rmaydi yoki uning mazmunini idrok qilmaydi, u mazmunli obrazni idrok etadi. Xuddi shu mazmunli obraz lisoniy belgiga aylanadi va bu belgi ma'nosining o'zagini tashkil qiladi. Lekin voqelik – ong – lisoniy belgi o'rtasidagi bunday uzviylikni oddiy takrorlash ko'rinishida talqin etmaslik kerak. Chunki ong voqelikni lisoniy belgi vositasida oddiygina aks ettirmaydi, balki sub'yekt uchun muhim bo'lgan belgi – xususiyatlarini ajratadi hamda ular asosida idrok etilayotgan ob'yekt (predmet, hodisa)

ning namunaviy modelini yaratadi. Ongning bu turdagi analitik – tahliliy faoliyati amalga oshishida lisoniy belgilarning roli alohida e'tiborga loyiq.

Konseptning lisoniy modellashuv jarayoni yana bir muhim mental bosqichni bosib o'tadi. Voqelikning tafakkurdagi umumlashgan in'ikosi – obrazning mantiqiy “qayta ishlanishi” natijasida hosil bo'lgan konsept lisoniy “libos” olishdan oldin ushbu “libos” ning tasavvurdagi aksi – model yuzaga keladi. Lisoniy voqelanish rejasi paydo bo'lgan zahotiyoq uni amalgam oshirish uslubi izlanadi. Reja hamda “so'zsiz” model nolisoniy yoki “botiniy nutq” jarayonida yuzaga keladi. Botiniy nutqning yuzaga kelish muammosi bilan shug'ullangan psixolog va psixolingvistlar ushbu hodisani turlicha talqin qilib kelishmoqda. Ulardan ayrimlari botiniy nutqni oddiygina qilib, o'z-o'ziga gapirish bilan tenglashtirsalar, boshqalari uni alohida tashqi (zohiriy) nutqdan butunlay farq qiluvchi hodisa sifatida ta'riflaydilar. Biroq, eng muhimi, botiniy nutq zohiriy nutqning asosini, negizini tashkil qilishini olimlar e'tirof etib kelishmoqda. Darhaqiqat, nutqiy faoliyat ijro (talaffuz) va eshitish (mazmun, idrok) bosqichlaridan tashqari yana bir bosqichni o'z ichiga oladi. Bu tashqi yoki zohiriy nutqni rejalashtirish bilan bog'liq yashirin jarayondir. A.R.Luriya aytganidek, bo'lg'usi nutqiy hatakatiyat niyat va rejadani boshlanadi va ushbu reja nutqiy faoliyatning “ichki harakatchan sxemasi” vazifasini o'taydi.

Ichki sxema o'ziga xos dasturlash xizmatini o'tab, lisoniy nomlanish lozim bo'lgan konseptning mundarijasida mujassamlangan asosiy mazmuniy xususiyatlarni aks ettirmog'i darkor. Botiniy nutq konseptning lisoniy voqelanishini ta'minlovchi jarayondir. Ushbu jarayonda bo'lg'usi lisoniy birlikning tuzilishi va mundarijasi shakllanadi.

Xullas, botiniy nutq jarayonida konsept, birinchidan, ma'lum mazmun shaklini olsa, ikkinchidan, lisoniy belgi tanlovi bosqichiga tayyorgarlik ko'radi. Xuddi shu hozirlik lisoniy modellashuvdan oldingi harakatlar vositasida nominativ birlikning denotativ asosini mazmunan boyitadi. Bu bilan lisoniy tanlov imkoniyati ham kengayadi. Lisoniy tanlov esa alohida ko'rinishdagi lisoniy tafakkur faoliyati

natijasidir. Bu faoliyatning ko'chishi til o'zlashtirish va nutqiy qobiliyat hosil bo'lish jarayonlariga mos ravishda kechadi. Ma'lumki, inson til va moddiy olamni bir xil uslubda hamda bir xil yo'nalishda o'zlashtiradi. Moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet – hodisalar haqida tushuncha tug'ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna – konsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishni taqozo qiladi. Bu xildagi ko'p bosqichli linvopsixik faoliyatning natijali (natija muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo'lishidan qat'iy nazar) kechishida asosiy rol ni lisoniy xotira o'ynaydi.

Konseptning lisoniy voqelanish jarayoni uning tabiati va uni harakatga keltiruvchi mexanizmlar haqida gapirayotib, N.Xomskiyning nutqiy faoliyat va lisoniy ijodni ta'minlovchi botiniy va zohiriy strukturalari haqidagi fikrini yana bir karra eslamaslikning iloji yo'q. Ushbu g'oya botiniy strukturaning zohiriy tuzilmaga o'tishini faqatgina formal jihatdan tahlil qilinishiga yo'l qo'yilganligi va natijada shakl mazmun (semantika) dan ustun bo'lib qolganligi ayblovi bilan uzluksiz tanqidga uchrab qolayotganiga qaramasdan, kognitiv tilshinoslik uchun ancha muhimdir.

Tilshunos uchun eng muhimi tafakkur birligi bo'lgan konseptning tilda (aniqrog'i nutqda) aks etishini ta'minlovchi strukturalar, harakatlar, qoidalarni aniqlashdir.

2. Modallik kategoriyasining tillar misolidagi aksi

Modallik kategoriyasi va uning semantik xususiyatlari qadimgi yunon falsafa fani namoyondalari asarlarida ilk bor tadqiq etilgan. Xususan Aristotel formal mantiqni borliq haqidagi ta'limoti bilish va haqiqat nazariyasi bilan bevosita bog'liq holda mantiqiy hamda borliq shakllari sifatida ko'rsatgan. Bunda Aristotel modallik kategoriyasiga alohida e'tibor berganligini ta'kidlash lozim. U mantiqiy fikr va mulohazalarni sistematik tahlil qilib, mantiqiy modallik nazariyasi, ta'limotiga asos soldi va uni ilmiy-falsafiy maydonga olib chiqib, modal universallari va ayrim (alihida, shaxsiy, xususiy) mulohazalari bilan zid va sillogistika (xulosa chiqarish) jadvalini tuzishga harakat qilgan. Aristotel ularni (*zarur*, *mumkin*) umumiy va ayrim fikr holida

" modal tushunchalar bilan bog'lab tushungan" Natijada ikkita mantiqiy- lingvistik modallik kategoriyasi ya'ni **zaruriyat** va **mumkinlik** kategoriyalari kelib chiqadi.

Aristotel modallik kategoriyasining mohiyatidan kelib chiqib, uni ikki aspektga ajratgan: ob'ektiv borliqdagi harakatning amalga oshishi mumkinligi yoki uning haqiqatga oshmaslik mumkinligi (ehtimolliligi).

Birinchisida ish-harakatning kelajakda amalga oshishi real, tasdiq sifatida qaralsa, ikkinchisida ushbu harakatning amalga oshishi mumkin emasligi nazarda tutiladi.

Aristotel " Kategoriya" deb nomlangan asarida tushunchalar, ularning turlari, asosiy, umumiy, ilmiy tushuncha- kategoriyalar, tilda turli xil kategoriyalarning rivojlanishiga va ularning xususiyatlarini ochib berishga katta e'tibor bergan.

Kategoriya mohiyati haqida Aristotel shunday deydi: " Bu eng oliy mantiqiy tushunchalar bo'lib, ob'ektiv borliqning asosiy, muhim xususiyatlari kategoriyalarda aks etadi va ular asosida boshqa tushunchalar hosil bo'ladi. Ular moddiy dunyo (ob'ektiv borliq) bilan bog'langan va ularning munosabatini ifodalab gaplarning asl mohiyatini anglatadi.

Aristotel alohida predmetlarni (ular asosida predikatlar borligi uchun) kategoriyalar deb qaraydi. Shu ma'noda Aristotel u yoki bu alohida olingan predikatlarga nisbatan tushunchalarni kategoriyalar deb ataydi. bunday kategoriyalarni 10 ta deb belgilaydi. Ular quyidagilar: 1) mohiyat, 2) miqdor, 3) sifat, 4) munosabat, 5) o'rin, 6) vaqt, 7) holat, 8) egalik, 9) harakat, 10) majhullik kategoriyalaridir. Mazkur kategoriyalar ob'ektiv borliq mohiyatini ifodalaydi va ularga ilmiy bilish nuqtayi nazaridan yondashish kategoriyalarning mohiyatini anglashga imkon beradi.

Birinchi kategoriya " Mohiyat" (Substantis) deb ataladi. Hamma otlar shu ma'no bilan ifodalanadi.

Aristotel gapning ega va kesimini mantiq ma'nosida alohida ajratmaydi. Bu esa uchinchi ma'noni keltirib chiqaradi. Masala shundaki, Aristotel uchun "odam", "ot" atamaları mantıqan 3 xil ma'noni anglatadi: 1) tirik mavjudod, 2) jins va tur, 3) gapda ega vazifasini bajaradi. Demak, Aristotel uchun ega atamasi 2 xil ma'noni anglatadi:

birinchi mohiyati, masalan, “odam” , “ot” so’zlari- bular individ, ikkinchi mohiyati yuqoridagi so’zlar gapda sintaktik vazifani bajarib, ega rolini bajarishi ham mumkin. Bu tushuncha va ma’no mazmuni birinchi kategoriyaning mohiyatini tashkil qiladi. “Mohiyat” kategoriyasi qo’shimcha sharhlashni talab qiladi. Aristotelning fikricha, “Mohiyat” kategoriyasi mazmun jihatidan ikkiga bo’linadi. Til jarayonida bu kategoriyaning birinchi mohiyati atoqli otlarda namoyon bo’ladi. Bu kategoriyaning quyidagi misollar bilan tushuntirib berishimiz mumkin:

1.*Abdulla Qodiriy – o’zbek romanchiligining asoschisi.*

2.*Navoiy-she’riyat mulkining sultoni.*

Bu gaplar bir-biri bilan sintaktik bog’langan. Gaplar tasdiq hukmini ifodalaydi, bunda grammatik ega mantiq sub’yektlari- *Abdulla Qodiriy, Navoiy(S)* Grammatik kesim mantiq predikatlarini(*o’zbek romanchiligining asoschisi, she’riyat sultoni*)(P) bildiradi: predmet tasavvuri-sub’yekt-ega, belgi tasavvuri-predikat-kesim.

“Mohiyat” kategoriyasining ikkinchi ma’nosi esa umuman barcha otlarda aks etadi. Masalan : 3. *Dugonam Zebo.* 4.*Qora bulut.*

Keltirilgan misollar esa Aristotelning formulasini, ya’ni hukmning tarixiy formulasi: “S – P demakdir” – ni bildiradi. Ushbu formula shu narsani anglatadiki, insonning bilim doirasi avvalo ob’yektiv borliqni ifodalaydigan real predmetga yo’naltirilgan bo’ladi. Bunda hukm sub’yektlari- *Abdulla Qodiriy, Navoiy, Dugonam, Bulut* “S” atamasi bilan ifodalanadi. Hukmning predikatlari esa “P”- “*O’zbek romanchiligining asoschisi*”, “*she’riyat mulkining sultoni*”, “*Zebo*”, “*qora*”- predmetning asosiy xususiyatini ifodalaydi. Bu umumiylikning asosidagi ishonch predmet tabiatiga egadir. Mantiqiy bog’lanish bu holatga qarama-qarshi tamoyil qo’llashga intiladi va shunday mantiqiy bog’lanish hosil qiladi.: a R b. bu yerda a v b belgilari predmetlar (1,2,3,4) hisoblanadi, a R- esa ular orasidagi mantiqiy munosabat bog’lanishdir. Bunday holda odamning bilish doirasi predmetlarning ab (1,2,3,4) xususiyatlarini o’rganishgagina yo’naltirilmasdan, ular orasidagi bog’lanish va munosabatlarni (R) ham aniqlashga qaratilgan bo’ladi.

Miqdor kategoriyasi. bu kategoriya **qancha?** So'roq olmoshiga javob beradi. Ushbu kategoriya bir paytning o'zida ham sifat, ham biror narsaning miqdorini anglatib keladi. *Sifat. Qanday?* *Munosabat* – o'zaro munosabat. **Qandaydir** munosabatda: olmosh ko'makchi bilan, nimaning munosabatida? *O'rin.* **Qayerda** mantiqiy urg'u qo'yiladi. *Vaqt. Qachon?* So'roq olmoshiga yoki ravishiga javob bo'ladi. *Holat.* Qandaydir vaziyatda, sharoitda, holatda bo'lish, fe'lning noaniq shakli o'rta nisbatda, aynan, “*yotmoq*” qandaydir sharoitda joylashgan. *Egalik kategoriyasi. ega bo'lmoq. Bor bo'lmoq. Qanday holatda,* fe'l noaniq shaklda . *Harakat. Ta'sir qilmoq.* Fe'lning infinitif shaklida “ qilmoq”. Misollar 3 shaxs birlikda. Hozirgi zamon aktif nisbatda *kesyapti, yondirayapti.* *Majhullik kategoriyasi.* fe'lning infinitiv shaklida, chidamoq, qiynalmoq. Misol – hozirgi zamon 3- shaxs majhullik nisbatda, *u qiynalyapti (uni qiynashyapti), o'layapti (uni o'ldirishayapti).*

Aristotel o'z kategoriyalarini tahlil qilib, keyinchalik “Metafizika” kitobida ularning sonini uchtagacha qisqartiradi:

1. “Mohiyat” kategoriyasi – predikat bir xil bo'lgan gaplarda: Аристотел- человек
2. “Holat” kategoriyasi – bir o'rinli predikat gaplarda:
3. “Munosabat” kategoriyasi – ikki o'rinli predikat gaplarda:

Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Aristotel kategoriyalarni asosan uch semantik guruhga bo'ladi. Tabiiy savol tug'iladi. Aristotel qolgan yetti kategoriyani tashlab yubordimi yoki ulardan voz kechdimi? Javob ijobiydir. Aristotel uchta kategoriyani asosiy tur deb olib, qolgan yettita kategoriyani shu turning yordamchi turlari deb qaragan. Aristotelning bu ilmiy falsafiy mantiqiy qarashi to'g'rimikin?

Semantik va mantiqiy jihatdan olib qaraganda, Aristotelning o'nta kategoriyasini bo'lib yuborish maqsadga muvofiq emas. Gap shundaki, yuqorida berilgan kategoriyalarning har biri mustaqil ma'noga ega bo'lib, mantiqiy predikatlarni talab qiladi va modallik nuqtayi nazaridan har bir kategoriya o'z mazmun ifodasiga ega.

Aristotelning xizmati shundaki, kategoriyalar turini aniqlash va ularni aniq bir sistemaga solib, bir til misolida tushuntirib izohlab berish o'sha davr uchun

olamshumul ahmiyatga ega edi. Eng muhimi , Aristotelning kategoriyalari asosida keyinchalik falsafiy, mantiqiy, lingvistik, semantik, modallik kabi kategoriyalar hosil bo'ladi. Bu tushunchalar mantiqda semantik operatorlar orqali, tilda esa morfologik va sintaktik usullar bilan ifodalanmoqda.

Mantiq ilmda modallik kategoriyalarini eramizdan oldingi 4-asrning oxirlarida Stoiklar maktabi vakillari yanada rivojlantirdilar. "Mantiq" atamasini birinchi marta qo'llagan stoiklar "mantiq" atamasini so'zlarning ifodalanishi haqidagi fan deb tushuntirganlar. Stoiklar maktabining vakillari – Zenon, Xrisip, Ariston, Posidoniy va boshqalar birinchi bo'lib tafakurning shakl va qonunlarini o'rganuvchi fanni "Analitika" nomi bilan yuritgan edi.

Stoiklar mantig'i – bu mulohazalar mantig'idir. N.I. Styajkinning fikricha, "stoiklarning asosiy xizmati shundaki, ular mantiq ilmini aksiomalashtirish g'oyasini taklif qiladilar va propozitsional hisobiga asos soladilar. Stoiklar birinchi bo'lib implikasiya nazariyasini qayta ishlab chiqdilar. Mazkur nazariyaga ko'ra, moddiy dunyoda narsalar mavjud va ularda o'zaro bog'lanish bor, predmetlar o'rtasida zaruriy munosabat mavjud. Stoiklar birinchi bo'lib hozirgi zamon mantig'idagi amaliyotlarning qoidalarini anglab yetganlar. Ular murakkab mulohazalarning chinligini soda gaplar asosida bog'lovchilar yordamida ("yoki", "va", "agar.....unda") tushuntirib berganlar. Stoiklar bularni asosiy mulohaza chinligining funktsiyasi deb qaraganlar".

Ta'kidlash lozimki, stoiklar maktabining vakillari faqat mantiq fanini rivojlantirish bilan birga Grammatik kategoriyalarning qo'llanishiga ham e'tibor berishgan.

Grammatik kategoriyalarni takomillashtirish yo'lida stoiklar quyidagi ishlarni bajargan. 1.so'z turkumlari tushunchasiga aniqlik kiritildi. 2. Tilda ifodalovchi va ifodalanuvchi elementlar borligi ko'rsatildi. 3. Ot kategoriyasiga o'rta yoki oraliq jins tushunchasi kiritildi.

J.Bo'ronov fikricha, "Stoiklar otlarni atoqli va turdosh otlarga bo'lishadi. Ular fe'llarda son, nisbat (aktiv va passif nisbat), zamon (hozirgi va o'tgan zamon), mayl (indikatif, subyunktif, optatif, imperatif mayl) kategoriyalari borligini ta'kidlaganlar. Bu kategoriyalarni aniqlashda stoiklardan Xrisipp (mil.av. 280-206), Sekst Empirik (eramizning 200-yillari) va ularning shogirdlari xizmati juda katta bo'lgan. Masalan, Xrisipp atoqli va turdosh otlarni bir guruh qilib qo'shib yuboradi, uning shogirdi Antipater esa sifatdoshni ham mustaqil so'z turkumi deb hisoblagan. Sekst esa sintaksis grammatikaning yuqori bosqichi ekanligini qayd qiladi".

Stoiklar Aristotelning 10 ta kategoriyasi o'rniga to'rtta kategoriya tavsiya etadilar. Bu kategoriyalar o'z xususiyati bilan Aristotel kategoriyalaridan farq qilib, ular guruhiga quyidagi kategoriyalar kiradi: 1. Substrat (ega), 2. Sifat, 3.holat, 4. Munosabat. Bu kategoriyalar bir-biri bilan semantik munosabatdadir. Ammo bu munosabatni qanday izohlash (tahlil qilish), tushuntirib berish mumkin?

Stoiklarning kategoriyalarini quyidagicha izohlash mumkin: to'rtta kategoriyadan birinchisi ega- substrat, ammo mulohaza munosabatiga allaqachon olingan va amalga oshgan; bu "*mumkin*" bo'lgan mulohazaning (gapning) egasidir". Ikkinchi kategoriya "*sifat*" ega, ya'ni substratning muhim belgisi va predikati bilan oddiy sodda gap tarkibida bo'ladi: *Саша пишет*. Uchinchi kategoriya "*holat*" bo'lib, u ega substrat va belgi predikat, paytga, vaqt o'tishiga va aniq hollarga, ya'ni sodda yoyiq gaplar hol aniqlovchilar bilan olingan. To'rtinchi kategoriya "*munosabat*" bo'lib, u yoyiq gapning boshqa gaplarga, ya'ni atrofni o'rab turgan matn munosabatda bo'ladi. Shunday izoh(sharh) bilangina kategoriyalar orasidagi "gap bo'laklari" ("so'z turkumlari") ni bir ma'noni anglatuvchi sistema deb tushunish mumkin.

Demak, stoiklarning ta'limotida alohida so'z – tushuncha sodda gap tarkibiga kirgan. Sodda gap o'z o'rnida yoyiq gapga, qo'shma gap esa murakkab qo'shma gapga aylangan. Stoik maktabi vakillarining xizmati shundaki, ular kategoriyalar mazmunan o'zaro bog'lanib, Grammatik kategoriyalarni hosil qiladi, degan fikrni rivojlantirdilar. Bu bilan ular so'z turkumlari tushunchasiga aniqlik kiritib, tilda ifodalovchi va

ifodalanuvchi elementlar borligini ko'rsatdi; ot kategoriyasiga o'rta jins tushunchasini olib kirdi. Stoiklar tomonidan kategoriyalar soda gaplar tarkibida sintaktik qatlamda tahlil qilingan. Yana bir muhin xulosa shuki, stoya maktabi vakillari birinchi bo'lib tafakkur qonunlarining harakatini anglatuvchi mantiq fanini rivojlantirdilar va uni falsafaning tarkibiy qismi deb qarashgan. Mantiq faqatgina tushuncha, hukm va xulosa chiqarishnigina o'rgatib qolmasdan, shu bilan birga so'z va gaplarning grammatikasini ham o'rgatishi kerak, degan fikrni ilgari suradilar.

Aristotel va stoiklar maktab vakillari asoslagan va rivojlantirgan kategoriyalar haqidagi ilmiy – nazariy fikrlar oradan bir necha asrlar o'tib, o'rta asr Sharq ilm fanida yanada takomillashdi.

Prezident I.A.Karimovning “Biz Sharq sivilizatsiyasi va madaniyatiga mansubligimiz bilan faxrlanamiz”,-degan fikri buyuk allomalarimizning jahon ilm-fani xazinasiga salmoqli hissa qo'shganligini bildiradi. Bu fikr o'rta asr sharq uyg'onish davri namoyondalari: Imom Buxoriy, al-Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va boshqalarning ilmiy merosiga ham taaluqlidir. Prezident Islom Karimov atganlaridek, “Mustaqillikka erishganimizdan keyingina biz buyuk allomalarimizning hurmatini o'rniga qo'ya oldik. Mustaqillik tufayli O'zbekistonda o'rta asr sharq uyg'onish davri namoyondalarining ijtimoiy-falsafiy va boshqa fan sohalarida, shu jumladan, mantiq, til, grammatikaga oid fikrlarini o'rganish uchun sharoit yaratildi. Ajdodlarimizning boy ilmiy merosiga murojaat etish boshlandi. Xalqning ruhi uyg'ondi, ilmiy tadqiqot faoliyatiga keng yo'l ochdi”.

Tarixdan ma'lumki, 7-16-asrlarda Sharqda, shu jumladan Markaziy Osiyoda ijtimoiy-falsafiy fikr, ilm-fan qaytadan rivojlana boshlandi. Shuning uchun ham bu davr Sharq uyg'onish davri, deb e'tirof qilinadi. Mana shu davrda Markaziy Osiyo jahonga buyuk mutaffakir olimlar va donishmandlarni yetishtirib berdi. Ilm – fanning mana shunday rivojiga Sharqning buyuk donishmandi, Aristoteldan keyin “ikkinchi muallim” hisoblangan Muhammad Abu Nosir Forobiyning salmoqli hissasi bor. Forobiyning buyukligi shundaki, u qadimgi yunon fanining yutuqlarini o'rta asr

Sharqida targ'ib qilishda va tarqatishda muhim rol o'ynaydi. Yunon mutaffakirlari Aflotun (Platon), Arastu (Arestotel), Evklid, Ptolomiy asrlariga sharhlar yozdi, ularning ilmiy fikrlarini rivojlantirdi. Arestotel ta'limotini chuqur o'rganib, uning barcha asrlarini izohlab berdi. Farobiyning bu faoliyati faqat o'rta asr Sharqinigina emas, o'rta asr Ovrupasini ham yunon ilmi bilan tanishtirishda katta ahamiyat kasb etdi.

Ilk o'rta asr Sharq uyg'onish davrining yorqin namoyondasi Abu Nasr Farobiy o'z asarlarida o'rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, "Hayotbaxsh hur fikrlilik"ni shakllantirdi va, umuman Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida ilg'or ijtimoiy-falsafiy taffakkurni taraqqiy ettirdi. U qadimgi Yunon, avvalo , Arestotel tabiiy-falsafiy g'oyalarining izchil davomchisi va targ'ibotchisi sifatida keng shuhrat qozongan. Mutaffakkirning ta'kidlashicha mantiq san'ati aqlning mukammallashuviga olib keluvchi va odamni haqiqat tomon yunaltiruvchi qonunlar majmuasini o'rganadi. Bu qonun odamni bilish jarayonidagi turli xato adashishlardan saqlaydi. Odam bu qonunlar yordamida bilimlarini tekshirib, ularning chin yoki yolg'onligini aniqlash imkoniga ega bo'ladi.

Farobiy sillogizm va isbotlash usuli eng to'ri, haqiqatga olib keluvchi usul bo'lib, ilm-fan, falsafa shularga asoslanishini aytib, u asosiy mantiqiy kategoriyalar: tushuncha, hukm va ularning turlari, xulosa, sillogizm va ularning shakllari, modustlarini chuqur tahlil qilib, ular to'g'risida izchil ta'limot yaratdi.

Mutaffakkir to'g'ri taffakkur qilishning asosiy tamoyillari: aynanlik, hukmlarning o'zaro zid bo'lmasligi, izchilligi har qanday xulosaning yetarlicha asoslanganligi kabi muhim mantiqiy masalalarni har tomonlama ishlab chiqdi.

Farobiy "mantiq"ni chinni yolg'ondan ajratish fani, deb ham ataydi. Farobiy mantiq faninig asosiy fazifasi odamlarning fikrini o'z tilida to'g'ri bayon etishga o'rgatish deydi. Mantiqni Farobiy 2 qismga bo'ladi: 1.obektif borliqni, voqelikni kishi ongida aks ettiruvchi, ayni zamonda kishini obektif borliqqa voqelikka munosabatini ifodalavchi, kishilarning dunyo qarashi asosini tashkil etuvchi tushuncha va

tassavurlarni o'rganish va ular haqida ta'rif berish nazariyasini (ta'limotini) o'rganish.

2. Hukm, xulosa va isbot qilish haqidagi ta'limotni (nazariyani) o'rganish.

Farobiy Arestotel mantig'iga asoslanib, o'rta asr Sharqida mantiqiy qomus yaratdi. Bu qomus mantiqning barcha qismlarini kategoriyalar, hukm, sellogizm, isbot va uning turlarini, shuningdek poetika, ritorika, sofistika oid qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Farobiy mantig'i Sharqda va so'ngra G'arbda ham mashhur bo'lgan. Eng muhimi mantiq ilmini til ilmi bilan uzviy bog'lab, taffakkurni esa nutq bilan birgalikda olib tekshiradi.

O'rta asr Sharq uyg'onish davri ilm-fani taraqqiyotida Forobiyning ilmlar tasnifi muhim rol o'ynaydi: ilmlarning strukturasini baholashda u asosan, to'g'ri tamoyillardan kelib chiqib, ilmda borliqni birdan bir holati aks etishidan iborat obektiv mezonni ilgari surgandi. Forobiyning fikricha, har bir fan substansiyaning muayyan tomonini, moddiy jismlarning muayyan guruhi yoki xususiyatini o'rganuvchi ilmlarini birinchi o'ringa qo'ydi. O'zining eng muhim asarlaridan "Ilmlar tasnifi" – "Ixsol ulum" asarida qadimda va o'rta asrlarda ma'lum bo'lgan barcha ilmlarni tartibga solib, ularning mohiyati, mazmuni, ahamiyatini birma-bir ta'riflab, ilmlarning quyidagi tasnifini keltiradi. 1. til haqidagi ilm, 2.mantiq, 3.matematika, 4.ilm at-tabiiy va ilm al-ilohiy-tabiiy va ilohiy ilmlar yoki metafizika 5. siyosat ilmi(ilm al-madaniy-shahar haqidagi ilm, shaharni boshqarish ilmi).

Forobiy mantiqning asosiy kategoriyalari- tushuncha, hukm va ularning turlari, sillogistik xulosa – uning turlari, shuningdek deduksiyaning shakl va moduslari ustida to'liq fikr yuritib, ular to'g'risida izchil ta'limot yaratgan. Aristotel singari Forobiy ham eng muhim tushuncha – kategoriyalarini – materiya, substansiya, aksidensiya, harakat, vaqt, va hokazolarni birma- bir tahlil etadi. Hukm va sillogistika to'g'risidagi fikrlar Forobiy tadqiq qilgan mantiq ilmining eng muhim qismlaridir. Shuningdek, Forobiy induksiya turli mantiqiy usullar- ta'riflash, taqsimlash, hukmlarni axtarish, bevosita xulosalash kabi masalalar ustida ham batafsil hukm yuritadi.

Forobiyning ijtimoiy hayot, mantiqiy va til ilmi haqidagi fikrlari o'rta asr Yaqin va O'rta Sharqda modallik mantiq'i, mantiqiy kategoriyalar haqidagi ta'limotning yanada rivojlanishida muhim rol o'ynagani hammaga ma'lum.

Afsuski, ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidagi "Yevrosentirizm" oqimi tarafdorlari Sharq xalqlari mutaffakirlarining, shu jumladan Abu Nasr Forobiyning ilg'or ijtimoiy-falsafiy va mantiqiy fikrlarini tan olishmadi. Ualrning da'vosicha, Sharq im-fani, madaniyatining har qanday ko'rinishi G'arbning tasirida vujudga kelgan. Sharqdagi har qanday ishtimoiy-falsafiy va mantiqiy fikrlar G'arbda ilgari surilgan fikr, g'oyalar bilan sug'orilgan deb o'rta asrlarda sharqda rivojlantirilgan falsafiy-mantiqiy fikrlarni tan olmaydilar. Shu bilan birga "Evrosentrizm" ning ba'zi namoyondalari o'zlarining reksion qarashlarini yashirish maqsadida G'arb bilan Sharq ijtimoiy-falsafiy va mantiqiy fikrlarini uyg'unlashtirish bahonasi bilan G'arb bilan Sharq yagona ma'naviy ideal tomon intilardi, ular bir-biriga zarur deb isbotlashga ham urinadilar. Buni ular "Forobiy bilan Aflotun hamfik bo'lgan, Forobiy falsafasi mantiq'i bilan Aristotel falsafasi, mantiq'ida umumiylik bor" deb uqtiradilar. Bu haqiqat. Buni biz qadimgi yunon ilm-fanining buyuk namoyondasi Aristotel va o'rta asr Sharq uyg'onish davri ilm-faninig ulug' vakili Forobiyning mantiq kategoriyalari hamda ularning modallik xususiyatlarini tahlil qilishda yaqqol his qildik.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Forobiyning falsafa va mantiq ilmiga oid qarashlari hamon o'z ahamiyatini yo'qotmagan va O'zbekiston mustaqillik yillarida keng ko'lamda o'rganilmoqda, jamiyat, ijtimoiy taraqqiyot, odam va uning mohiyati komil inson shaxsini shakllantirishda buyuk ajdodimiz Abu Nosir Forobiyning boy ilmiy merosi muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Prezident I.A.Karimov uqtirganidek, "bebaho falsafiy merosimizga tayanib, yoshlarni erkin O'zbekistonga munosib kishilar qilib tarbiyalash ta'lim-tarbiya sohasidagi ishimizning asosiy yo'nalishi bo'lmog'i kerak".

Shuningdek, o'rta asrlardayashagan bir qator g'arb mantiqshunos olimlari (Vilyam Okkam, Djon Buridan, Psevdo Skot kabilar) modallik mantiq'ini yanada rivojlantirdi.

Ular modal gaplarning bir- biri bilan uzviy semantik bo'g'lanishga va gaplarda fikrning mantiqiy bog'lanish va bog'lanmaslik holatlariga asosan e'tiborni qaratadilar. Mantiqshunoslar deontik modallik (zaruriyat va majburiyat), imkoniyat va ijozat (ruxsat), mumkin emaslik va ta'qiq kabi tushunchalar orasidagi o'zaro o'xshashlik va noo'xshashlikning semantik xususiyatlarini tushuntirib berdilar.

Qadimgi davr tafakkurida modallik statistik tushuntirishning asosiy rivojlanish yo'llari **necessarium perse** (xususiy zaruriyat) va **nessessairium per accidens** (passif zaruritat) iboralari bilan izohlab berilgan. XII-XIII asrlarda mantiq ilmida "umumiy mantiq" degan tushuncha rasman qabul qilindi. Modallik tushunchasini anglashda va uni gaplarda ifodalashda asosan yuqoridagi ikki tipdan foydalanilgan.

Birinchi tip har doim o'zining chinlik xususiyatlarini o'zgartitmasligi bilan xarakterlansa, ikkinchi tip esa gapda ma'lum vaqtdagina o'zining chinlik ma'nosini saqlab qoladi.

O'rta asrlarda determinizm (predmetning muhim farq qiluvchi belgilarini yoki tushunchaning ma'nosini- uning mazmun va chegaralarini belgilovchi- ta'limot) bilan bog'langan har xil muammolar aristotelcha ruhda tahlil qilinardi. Bu tahlil asosida modal gaplar yo **in sensu composito** (mazmunnig bog'lanishi – J.Yo.) ,yo **in sensu diviso** (mazmunning bo'linishi-J.Y) mavjud edi.Bunday gaplarning tahlili **de deco** (mazmun haqida) va **de re**(predmet orasidagi munosabat) modal konstruksialari deb atalardi (Knuutila 1984, 150.).

O'rta asrlarda modallik mantig'ni rivojlantirishda **de dico** , **de re** modal konstruksialari mantiqshunos va tilshunos olimlarning diqqatini tortgan. Bukonstruksiani olimlar ham mantiqda,ham tilshunoslik ilmiy-tahlil qilib chiqdilar. Ualrning semantic xususiyatlarini tushuntirib berishda mantiqshunos va tilshunos olimlar , masalan, J.Vikers (1976), S.Knuutila (1984), E.Saarinen (1984), V.Selishev (1978), Ya.Slinen (1967), A.Balino (1983), B.Pyatnitson (1984) kabilar yuqoridagi modal konstruksiyani modal ilmida o'rganishgan bo'lsalar boshqalari esa , jumladan Sh.Balli (1955), V.G.Gak (1986), T.Alisova (1971), E.Volf (1985), Yan Svetlik (1979)

– tilida ifodalanishini ko'rib chiqdilar. Ularning modallik konstruksiyasiga munosabatlari asosiy fikr- mulohazalari quyidagi jadvalda o'z aksini topgan.

Jadvaldan ko'rinadiki, modal konstruksiya bo'lgan munosabat bir xil emas. Modal konstruksiyaga ba'zi bir mantiqshunos olimlarimiz propozitsion qurilma yoki propozitsiya deb qarashadi. Hozirgi zamon mantiq fanida propozitsiya tushunchasiga tez-tez murojat qilishadi. Bu tushunchaning bahsli, munozarali roli gaplarning mantiqiy tuzilishiga tegishli edi.

1-jadval

№	Mantiqshunos va tilshunos olimlar	Modal konstruksiyaga bo'lgan har xil semantik yondashish va uning mantiqiy lingvistik talqin qilinishi.
1	Sh.Balli	Modus va diktum
2	V.G.Gak	Modus va diktum
3	T.B.Alisova	Modus va diktum
4	E.M.Volf	Modallikni baholash konstruksiyasi
5	J.Vikers	Modal shakl
6	S.Knutilla	Modal konstruksiya
7	E.Saadnnen	Modal shakl
8	B.Pyatnitsin	Modal propozitsional qurilma
9	Ya.Slinen	Modal operator-modal predikat
10	Yan Svetlik	Modal komponentlar
11	V.Selishev	Modal operator yoki modal belgi
12	A. Prayyor	Modal shakl
13	A.L.Blinov	Propozitsion qurilma

Mening fikrimcha, propozitsiya gapning muayyan maqsadiga yo'naltirilgan til birligining invariant qismi bo'lib, u predikatlar bilan uzviy bog'liq holda turlicha

semantik tushunchalarni (istak, inkor, chin, xato, tasdiq va hok) ifodalash uchun xizmat qiladi. Ushbu lisoniy birlik gap tarkibida erkin harakat qilib, har doim gapning biron bo'lagining mazmunini saqlagan holda almashish, o'rnida qo'llanishi mumkin.

Finlandiyalik mantiqshunos olim E.Saarinenning fikricha, tarkibida propozitsional ustanovkani ifodalagan kontekstlar quyidagi 3 ta muammo bilan bog'langan. 1) "kvantifikatsiya v"(ya'ni gapning umumiy mazmun hajmi) yoki *de re* propozitsional ustonavkalar muammosi: gapning qanday ma'no yoki semantikasini kontekstlar kvantifikatsiyasi o'z ma'nosini propozitsional ustanovkalarda saqlaydi; 2) turg'un designatorlar (atoqli ot, ko'rsatish olmoshlari, indikatorlar) deb ataladiganlar, ehtimol, ular propozitsional ustanovkalarining kontekstlarida doimo ishlatilmasligi mumkin. Olimning nazarida ustanovkali kontestlarda yurg'un atamalarni almashtirish mumkin emas. 3) hamma narsani mantiqiy bilish muammosi

Shu davrda ba'zi bir tilshunoslar mantiqiy modallik nazariyasini yanada rivojlantirishga urinib ko'rishgan. Ularning nazariyalarida **Q** modus deb ataladi. Modallik butunlay **R** ga tegishli bo'lib qoladi. Ammo B.Pyatnitsinning fikricha, faqat **R** ga tegishli modallik **De dicto** , **de re** esa **P** ga ham qarashlidir. Aniqroq qilib aytganda, **M** (S) larga tegishlidir¹

Vikersning ta'kidlashicha, har qanday modallik ikki xil shaklda (de dicto, de re) paydo bo'lib, boshqalari esa modallikning harakat doirasi, ya'ni butunlay S ning modallikka mos kelishiga qarashli yoki gapning predikatiga tegishli bo'ladi (Vikers 1976, 361).

O'zaro muloqot jarayonini tahlil qilar ekan, Yan Svetlik biz ko'rayotgan modal konstruksiyani nutq oqimida ishtirok etadigan 3 ta modallik komponenti deb ataydi. Ular quyidagilar: 1) so'zlovchi 2) adresat-tinglovchi 3) gapning mazmuni. Bu semantik komponentlar bir-biri bilan gapda uzviy bog'liq bo'lib, ularning o'zaro munosabatlari sintaktik modallikning umumiy modelini tashkil qiladi. Bu modelni Yan Svetlik

¹ Пятницын Б.В.Модальность и вероятность – средства выражения категории неопределенности. – Модальные и интенциональные логики и их применения к проблемам методологии науки. –М.,1984.С.360.

quyidagicha ko'rsatdi: SMO = Dr : re : d. muallif fikricha, gapning modalligi asosan yuqoridagi komponentlarga bog'liq bo'lib, ularning semantic ma'nolari to'rt xil gap turida – darak, buyruq, so'roq, istak gaplarda ifodalanishi mumkin. Har bir gap turi o'zaro bir-biri bilan sintaktik munosabatda bo'lib, ular sintaktik modallik xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Bu modal konstruksiyani mantiqshunos Ya.A.Slinin modal operator deb tushuntiradi. Bunda asosiy farq quyidagicha: modallik operator deb qaralgan *de dicto* hukmi butunlay gap mazmuniga tegishli, a *de re* esa faqat predikatga qarashli.

De dicto, *de re* modal konstruksiyalarining semantik xususiyatlari faqat mantiqshunos olimlarni qiziqtirib qolmasdan, balki qator tilshunoslarning ham diqqat markazida bo'lgan. Ular konstruksiyalarning qo'llanishini tilshunoslikda “modus-dictum” so'zlari orqali tushuntirib berishga harakat qilganlar.

Shvetsiyalik olim Sh.Balli modal konstruksiya to'g'risida o'zining qimmatli fikr-mulohazalarini bildirgan. “Har qanday eksplisit gap- deb yozadi u, - ikki qismdan iborat: ulardan biri tasavurni hosil qiladigan jarayonga korrelyativ (uyg'unlashgan)bo'ladi, uni "dikdum" deb ataymiz; ikkinchisi fikrlovchi subekt amalgam oshiradigan operatsyalarga korelyativ bo'ladi, uni "modus" deb ataymiz . Uning ta'limotida modus gapning asosiy (usiz gap mavjud bo'lmaydigan) qismi sifatida talqin qilinadi. Modal fe'l vamodal subektdan tashkil topgan modus diktumni to'ldiradi.Modallik-gapning asosi (qalbi-yuragi),fikir singari uham so'zlovchi subektning faol aqliy faoliyati natijasida yuzaga keladi.Binobarin, agar anglatilgan fikrda modallikning qandaydir bir ifodalanishi bo'lmasa, uni gap deb atash mumkin emas”.

So'ngi Sh.Balli mantiqiy tuzilga gap bo'laklari orasidagi modal subekt, modal fe'l va diktum munosabatlarini aniqlashga va modallik ma'nosi shaxssiz gaplarda emas, balki shaxsli gaplarda ko'proq qo'llanilishini misollar yordamida tushuntirib berishga harakat qildi.

V.G.Gak gapning semantik mohiyatidan kelib chiqib, uni dictum va modusga ajratadi. Uning fikricha, diktum – voqelikni aks ettirsa, modus esa soʻzlovchining voqelikka boʻlgan munosabatini (uning bilimi, shubha, hissiyoti, hohishi va shu kabilar)ni ifodalaydi.

Lingvist oʻzining modus va diktumga oid ilmiy qarashlarini quyidagi misollar yordamida tushuntirishga harakat qilgan:

Pierre est venu.

Pierre est-il venu?

Pierre n'est pas venu.

Pierre, viens!

Pierre viendra.

Je veux que Pierre vienne.

Pierre viendra, peut-etre.

Je ne crois pas que Pierre vienne.

Bu gaplarning hammasida bitta voqelik, yaʼni bitta subʼtekt (Pierre) va uning harakati haqida soʻz borayapti. Ammo ular bir-birlari bilan maʼno va mazmun jihatidan zamonda farq qiladi. Misolda dictum tushunchasi propositsiya tushunchasiga mos tushadi. Propozitsiya – bu gapning umumiy semantikasini tashkil qiluvchi mantiqiy atamadir. Yuqoridagi gapning asosiy propozitsiyasi – bu Pierre ning kelishidir.

V.G.Gak asosiy eʼtiborni til vaziyatiga qaratdi., chunki bu vaziyat (voqelik) gapda ikkita aspektni qamrab olyapti: voqelikka munosabat va nutq holati, yaʼni muloqat maqsadi.

Binobarin, birinchidan, dictum nominative gapda obyektlar orasidagi mazmunni tasvirlab bersa, ikkinchidan, modus – modal kommunikativ aspektda soʻzlovchining muloqot maqsadlarini ifodalab berish uchun xizmat qilyapti.

Professor T.B.Alisova modus va diktumning oʻzaro munosabatiga katta eʼtibor bilan qaraydi. Uning fikricha, har qanday mulohazaning predikativlik tabiati ikki qatlamdan iborat boʻlib, birinchi denotatdagi (diktumdagi) subʼyekt- predikat munosabatlari qamrab olinsa, ikkinchisi – soʻzlovchining shu aloqalarga boʻlgan munosabatidir (modus).

Soʻzlovchining aniq tushunchani mulohazada ifodalashi semantik subʼyekt tomonidan eksplisit (aniq) yoki implicit (yashirin)tarzda namoyon boʻlib, subʼyektning

diktunga bo'lgan munosabatini esa eksplisit yoki implicit holatda ifodalanuvchi semantik predikat deb qarash mumkin. T.B.Alisova diktum orqali modal ma'noni tushunsa, modus orqali esa semantic ma'noning berilish yo'llarini izohlaydi. Boshqacha aytganda, modus va diktumni eksplisid modallik deb olib, bu modallik ikki xil modus holatida mavjud bo'ladi: gapirish modusi va sub'ektivlikning baholash modusi holati. Bu ikkala holat bir-birini inkor qilmaydi, balki ular bir-birini to'ldiradi.

T.B.Alisova gapirish modusi deganda komunikativ modallikni, subektivlikni baholash moduli deganda esa eksplisit modallikni, y'ani to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapda ifodalangan modallik munosabatlarni tushinadi.

Modallik konstruksiyaning yana bir semantik xususiyati haqida gapirsak, E.M.Volf fikri bilan aytganda, uning "baholash modalligidir". Uning fikricha, **de dicto** va **de re** konstruksiyalarining baholash modalligi deb nomlanishni shu shart bilan qo'llash mumkinki, agr modus-diktum tipidagi konstruksiya va subekt-predikat baholash konstruksiyalari (b'zan semantik) oralaridagi farq nazarda tutilsa. Aksiologik (baholash) modalligining yana boshqa xususiyati bevosita **de re** baholash shakliga tegishlidir. **De dicto** modallik strukturasi mantiqiy ilmiy izlanishlarda asosiy hisoblansa, unda **de re** strukturasi roli tez-tez bahslashishga sabab bo'ladi. **De re** baholash strukturasi tillarda qo'llanish xususiyati **de dicto** baholash shakli nisbatan muhim. Hukmlarni baholashning ko'pchiligi obektga tegshli bo'lib, ular shu moddiy dunyoni o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga harakat qiladi.

3. Roman tilshunosligida modallik kategoriyasi

Modallik kaegoriyasini xususiyatlarini roman tillari material asosida qanday yo'llar bilan ifodalanishini izohlab berish uchun oldimizga ikkita vazifani qo'yishimiz lozim. *Birinchisi*, roman tillarida modallik kategoriyasining qanday usullar bilan ifodalanishi, ularning o'xshashlik va noo'xshashlik tomonlarini tahlil qilib tushuntirib berish bo'lsa, *ikkinchi* vazifamiz birinchisiga nisbatan ancha murakkabroq jarayonni o'z ichiga oladi. Bunday murakkab holat shu bilan izohlanadiki, modallik tabiatini

ta'riflash lingvistik adabiyotda har qancha tilga olinmasin, “ ushbu kategoriya lingvistlar diqqat markazida bo'lsa ham, u hamon qiyin muammolardan biri bo'lib qolmoqda”¹

Xo'sh, buning asosiy sabablari nimalardan iborat? Quyida shu sabablarni aniqlashga harakat qilamiz:

Turli tadqiqotchilar modallik kategoriyasini umumiy nazariy holatidan, faqatgina modallik tushunchasidan emas, balki tilning o'z tabiati va uning funktsiyasidan kelib chiqib, har xil fikr bildirmoqdalar va baholamoqdalar. Modallikni o'rganishning qiyinligi yana shu bilan tushuntiriladiki, hamma ovrupo tillarida alohida mayl kategoriyasi (eng avvalo indikatif va konyuktif) bo'lishidan qat'iy nazar, modallik faqatgina mayl yordamida berilmasdan, balki u boshqa turli yo'llar bilan (zamon kategoriyalari, modal fe'llar, so'zlar tartibi, alohida intonatsiya va hok) bilan ham berilishi mumkin.

Mayl kategoriyasi, mening nazarimizda, har doim modallikni ifodalab, so'zlovchi va tinglovchi orasidagi kommunikativ funktsiyani bajaradi. Modallikning funktsiyasi zamonlarni, ayniqsa, kelasi(o'tgan kelasi) zamon turlarini qamrab oladi. Kelasi zamon o'zining xususiyati va funktsiyasiga ko'ra (harakatning yo'qligi, ammo u *o'tiladi, isbot qilinadi*) modallikni ifodalash darajasi bir oz qiyinlashadi. Bu yerda boshqa bir muammo tug'iladi, ya'ni modallikning qaysi turi qanday vositalar bilan ifodalanishi ko'dalang turadi. Shuningdek ko'pchilik tadqiqotchilarda tilda maylni saqlab qolish kerakmi yoki grammatik kategoriyalarnimi degan savollarning tug'ilishi tabiiydir. Bunga misol qilib, masalan, konyuktivni(istak mayli) misol qilib ko'rsatish mumkin. Qadimgi ovrupo tillaridagi kabi roman tillarida ham konyuktif uzluksiz qo'llanib, modallik kategoriyasini ifodalashda til vositalaridan biri hisoblanadi. Masala shundaki, konyuktif muammosi modallik sistemasining asosiy tarkibiy qismini, ta'ni modal doirani hosil qilib, u roman tillari sintaksisi tarixida eng qiyin va kam o'rganilgan

¹ Бугадов Р.А. Сходства и несходства между родственными языками. -М.:Наука.1985.-С.271.

muammo hisoblanadi. Bu holat shunday tushuntiriladiki, har qanday tilda mayl haqidagi masala so'zlovchi sub'yektiv munosabatlarining murakkab sistemasi bilan bog'langan bo'lib, u nima haqida gapiryapti, nima haqida hukm chiqarmoqda va nimani baholamoqda kabi savollarning tug'ilishi tabiiydir.

Tadqiqotchilar orasida bu muammo bo'yicha yagona fikr yo'q. ayrim tilshunolar o'ylaydiki, yangi roman tillarida konyuktiv o'zining har qanday ma'nosini yo'qotib, u faqatgina formal eskilik sarqitiga, Grammatik qolipga (klishe), eng yaxshisi indikativning uslubiy variantiga aylangan desa, boshqalari qarama – qarshi fikrni himoya qilib ta'kidlaydilar, konyuktivning har qanday ma'nosi gipotetik (taxmin) modallikni ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi, uchinchi toifadagi tadqiqotchilar esa bu mayl o'z ma'nosini yo'qotganligini va bog'langan (ergashgan) tobe gapda shartlilikni tan oladilar.

Ma'lumki, ko'pchilik hind-ovrupo tillarida konyuktiv va optativ (istak) an'anaviy yozuv shakli boshlanguncha ular yagona ma'noga ega bo'lib, aniq ma'lum bo'lgan real dalilga, ya'ni, muin, taxmin, istak, tasavvur qilish ma'nolariga zid qo'yilgan. Bu esa mayl kategoriyasining ichidagi asosiy qarama-qarshi turgan indikativ (tasdiq kategoriyasi) va konyuktiv (taxmin kategoriyasi) haqida gapirishni taqazo qiladi. Masalan, zamon shakllarining turlicha qo'llanilishi, shubhasiz, fransuz tilidagi syubjonktivning indikativdan ma'lum darajada farq qilishidir. Amo bu me'zon lotin tilidagi mayllarga muvofiq taqqoslab ko'rish uchun qo'llangan. Modomiki, lotin konyuktivi lotin tilidagi syubjonktivga o'xshasa ham, fransuz syubjonktivi qo'llanish jihatidan lotin konyuktividan umuman farq qiladi. Lotin tilida konyuktiv ergash gaplarda kengroq qo'llanibgina qolmasdan, balki mustaqil sodda gaplarda qo'llanganda ixtiyoriylik (erkinlik), istak, taxmin, mumkinlik kabi ma'nolarni ifodalaydi. Sodda gaplarda modal ma'nolarining ifodalanishini yetti guruhga bo'lish mumkin: 1. *conjunctivus hortativus* – undash, majbur etish; 2. *imperativus* – buyurish; 3. *prohibitivus* – man etish; 4. *optativus* – istak-hohish; 5. *concessivus* – boshqa fikrga taxmin yoki faraz bilan qarash; 6. *dubitativus* – shubha; 7. *potentiatis* – mumkinlik yoki

ikkilanish, jur'at etmaslik kabi ma'nolarning ifodalanishini lotin tilida sodda mustaqil gaplarda ko'rishimiz mumkin.

Asosiy muammo shundaki, bu kategoriyalarning roman tillarida shakllanishi qaysi vazifani bajaradi va til dalillari (vositalari) bilan qanday munosabatda bo'ladi degan savollarning tug'ilishiga asos bo'ladi.

Ma'lumki, bunga o'xshagan til vositalari lingvistikada juda ko'p, shu bilan birga faqatgina grammatika sistemasida emas, balki uning atrofida, avvalambor, leksikada ham mavjud. Masalan, shunday so'zlar: *balki, ehtimol, mumkin, tuyulyapti, ko'rinib turibdiki*, shuningdek so'z turkumlari menga (bizga) *tuyulyapti, biz (men) o'ylaymizki* va shunga o'xshagan ko'pchilik vositalar: "*mumkin, taxmin, istak, tasavvur qilish*" ma'nolarini ifodalash mohiyatiga ega, ya'ni fikr va his- tuyg'ularimizning semantikasini, odatda, biz konyuktivning grammatik kategoriyasiga kiritamiz.

Leksik va Grammatik semantika bir-birini takrorlamay, balki bir-birini to'ldirib va boyitib boradi. Jumladan, tabiiy tillar o'zlarining imkoniyat darajasidan kelib chiqib, sun'iy yillar tarkibidan tubdan farq qiladi. Shunday ekan, ikkisidan birinchisi "ma'naviylik" til vositalari bilan izohlansa, ikkinchisi "quruq kommunikativlik" (mantiqiy formulalar) bilan farq qiladi.

R.A.Bugadov modallik kategoriyasini tushuntirar ekan, u modallikni ikkiga ajratishni taklif etadi: "modal gap" va "modal mayl". Uning fikricha, "har doim har qanday gapda modalik ma'nosi (bo'yog'i) bor. Modallik u yoki bu dalilni ta'kidlabgina qolmasdan, balki so'zlovchining shu dalilga, ya'ni voqelik-hodisaga munosabatini ham bildiradi. Ammo mayl modalligi esa ikkinchi modallik hisoblanib, u modal gapning mazmunini to'ldirib, unga qo'shilib ketadi. Gapning modalligi butunlay gap mazmuniga tegishli, maylning modalligi esa maxsus fe'l kesimga qarashlidir. Demak, gapdagi modallik hukmni to'laligicha o'z ichiga olsa, mayl modalligi bir oz cheklangan bo'lib, u maxsus kesimga xosdir"¹.

¹ Бугадов Р.А.Сходства и несходства между родственными языками.-М.:Наука.1985.232с.

T.B.Alisova fikricha, “modallik gapda asosiy mazmunga ega bo’lib, diktum va modal qism – modusga ajraladi. Asosiy g’oya eksplisit (aniq) va implicit (yashiringan) bo’lishi mumkin. Modallik ikki tipga ajraladi: kommunikativ sub’yektiv – baholovchi; gapning kommunikativ funksiyasini bajaruvchi sintaktik mayl”.

Hozirgi zamon ispan tilida modallik kategoriyasi grammatik va leksik shakllarda ifodalanadi. Grammatik modallik ispan tilida morfologik ifodalansa (fe’l mayllari, yordamchi fe’llar va infinitivning analitik konstruksiyalari), leksik modallik turli modal yuklamalar, so’zlar va so’z birikmalari (*tal vez, quiza, acaso va hok*) bilan berilib, ushbu semantik kategoriya fe’llarning sodda va analitik shakllari bilan ifodalanadi. Masalan, analitik yo’llar bilan ifodalanganda yordamchi fe’llar: *haber, haber de, tener que, deber de* + infinitiv qo’llanadi. Leksik-sintaktik konstruksiyalar bilan ifodalanganda esa quyidagi modal fellar keladi: *poder, saber, querer, soler, deber, desear* va hok. Ispan tilida ham boshqa roman tillaridagi kabi to’rtta mayl bo’lib, ularga buyruq, indikativ, subxuntivo (istak), konditsional kiradi va ularni semantik ma’nosi jihatidan bir-biridan ajratish qiyin. Masalan, lotin tilidagi kabi, ispan tilida ham buyruq ma’nosi (agar gap darak, tasdiq xususiyatlariga ega bo’lsa) imperativ yordamida ifodalanadi. Agar gap inkor shaklda kelsa, xuddi shu ma’no subxuntivo bilan berilishi mumkin. Ispan tilida indikativ mayli hamisha subxuntivo mayliga zid qo’yilib, konditsionalni esa indikativ va subxuntivo oralig’idagi mayl deb qaralgan.

Binobarin, ispan tili grammatistlari orasida mayl kategoriyalari haqidagi qarashlar ham bir xil emas. Ispan tili Akademik grammatikasida yozilishicha, indikativ real faktni, potensial-mumkinlikni, imperative buyruqni, subxuntivo esa istakni ifodalaydi.

Ma’lumki, mayllar ifodalayotgan semantic tushunchalar hajmi bir oz cheklangan. Albatta, bu yerdagi ba’zi fikrlarga qo’shila olmayman. Gap shundaki, imperative faqat buyruqni emas, balki istak, iltimos kabi ma’nolarni ham ifodalaydi. Bundan tashqari, konditsional bialn indikativ istak mayliga qo’shib yuborilgan. Bu fikr to’g’ri emas. Fikrimcha , konditsional alohida mayl deb qaralsa, maqsadga muvofiq bo’lardi, chunki

bu mayl tilda maxsus vositalar bilan ifodalanib, sodda gaplarda dilkashlik, xushmomilalikni, ergash gapli qo'shma gaplarda esa shart ma'nosini ifodalaydi.

Mayllarda modallik kategoriyasini ifodalash masalasida qator grammatistlar (Xili va Gaya, Belo) ispan tilida konditsionalni asosiy modal ma'noni ifodalovchi mayl deb tan oladilar va uni indikativ mayl tarkibiga kiritib, kelasi gipotetik zamon deb aytadilar. Bu maylning asosiy ma'nosi o'tgan zamondagi kelasi zamon ish-harakatini anglatadi. Ularning fikricha, bu mayl bir paytning o'zida modallik ma'nosi bilan subxuntivo (istak) maylini eslatadi.

Demak, hozirgi zamon ispan tilida ham mayllarning ma'nolari to'g'risidagi ilmiy qarashlar bir xil emas, qolaversa, har bir maylga nisbatan aniq fikr yoki ta'rif berilmasligi, mayllarning mustaqil ma'noni ifodalamasligining asosiy sababi ispan tilida mayllarning erkin qo'llanmasligi deb ko'rsatish mumkin.

Hozirgi zamon fransuz tilida modalik kategoriyasining ifodalanishi

Fransuz tilshunosligida modallik tushunchasini keng ma'noda tushuntirish va uni har tomonlama izohlab berishda F.Brunyoning xizmati katta. U o'zining *La pensee et la langue* (tafakkur va til) asarida lisoniy birliklarni tahlil qilib, ko'proq ularga psixologik (ruhiy kuzatish) nuqtayi nazaridan yondashadi. F.Bryuno modallikni belgilarning harakati deb qarab, bu harakat so'zlovchi tomonidan hukm zamirida o'tkazilgandir. U modallikni uchta katta guruhga ajratgan: 1. hukm modalliga; 2. sezgi(his-tuyg'u) modalligi; 3. istak modalligi. U sanab o'tilgan ma'no tiplarini ikkita kategoriyaga ajratadi: 1. chin (to'g'ri) va 2. mumkin (ehtimol). F.Bryuno modallik kategoriyasiga turli his – tuyg'ularni ifodalovchi tushunchalar (kutish, umid, tashvish, qo'rqish, ajablanish, rozilik, e'tiborsizlik, rad etish, achinish, afsuslanish, g'azablanish va hok.) kiritgan.

F.Bryuno tilshunoslikda mavjud bo'lgan "ma'nodan shaklga" tamoyiliga asoslanib, istak, taxmin, ishonch, iltimos, inkor kabi modal tushunchalarning qanday yo'llar bilan

ifodalanishini tahlil qilib, modallikni ikki sinfga ajratgan: real va eventual. Bu tushunchalar qanday ma'noni anglatish mumkinligini tushunish uchun quyidagi misollarni taqqoslab, chog'ishtirib chiqamiz:

1. *un enfant embrasse sa mere* – bu real harakat.

2. *une femme, s'ecrie: Oh, comme j'embrasserais volontiers mon petit!*

Birinchi gap real ish-harakatni ifodalab, ta'kidlab kelsa, ikkinchi gapda esa eventual (taxmin) harakat berilib, kelajakda amalga oshishi “mumkin” bo'lgan voqelik ifodalanmoqda. Misollardan ko'rinadiki, har bir sinf o'zining semantik xususiyatiga ega. Aytilayotgan gap mazmuniga ko'ra, modallik tasdiq (real), shubha, ishonmaslik, mumkin emaslik va noreal ma'nolarini ifodalashi mumkin. Bu ikki kategoriya (real, eventual) mazmun jihatidan ham, ifodalanish vositalariga ko'ra ham bir-biridan farqlanmaydi.

F.Bryuno fikricha, modallik kategoriyasini ifodalovchi vositalarga ohang (iltimos, nafrat, tasdiq, ajablanish, xursand bo'lganligi, zaruriyat, rad etish, ruxsat etish va hok.), zamon (modal fellar, modal to'ldiruvchilar: ravish, ravishli ibora, ko'makchilar, bog'langan yoki ergash gapli qo'shma gaplar), so'z tartibi va fe'l mayllari kiradi. Haqiqatdan ham, bu morfologik va leksik vositalar modallik kategoriyasini namoyon qilishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, turli xil mayllarning qo'llanishi o'zining semantik xususiyatiga ko'ra har xil modallik ma'nolarini ifodalab kelishi bilan bir-biridan farq qiladi.

F.Bryunoning qarashini Sh.Balli yanada sermazmun qilishga urinib, modallikni uchta turga ajratgan: intellectual (aqliy) hukm, vaziyatni baholash va istak modalligi.

Sh.Balli fikricha, “modallik gapning qalbi, yuragi”. Modal ma'nolar tarkibiga u “hukmning turli nozikliklari”, “sezgi va istak” larni kiritib, ular modal fe'llar, mayllar, intonatsiya, savol va buyruq shakllari: “modal harakat (ishora)”, shaxsning imo-ishorasi, undov so'zlar, atash (atov) kelishigi va ko'p sonli usullar bilan ifodalanishini ta'kidlagan.

Sh.Balli fikricha, potensial taxminiy modallik yoki ehtimollilik, ishonchlilik modallik mazmunini o'z ichiga olgan to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarda, modallikni mayl ifodalamasdan, balki felning modallik xususiyatini anglatib keladi. Bu bilan Sh.Balli an'anaviy grammatikaga qarshi chiqadi.

Sh.Balli fikrining mantiqiy tugallanishi istak maylini (bu yerda gap istak ergash gapli qo'shma gap haqida ketyapti) ilmiy o'rganishga bitorib taqaladi.: "u istak mayli mustaqil ma'noni ifodalamaydi", deb uqtiradi.

Ba'zi lingvistlar Sh.Balli fikrini qo'llab, masalan, T.Kalepki shunday deb yozadi: "Agar *je peux qu'il vienne* gapi istakni natijasi sifatida qarashi lozim xuddi shunga o'xshagan gapni olaylik: *je doute qu'il vienne* bu gapda ham (ergashgan qismida) hech qanday shubha ma'nosi yo'q. subjontif – shakllar majmui, ya'ni aniq morfologik mantiqiy mohiyat. Shunday ekan, bu til omili, lekin nutq omili emas. Til kategoriyalari esa (Grammatik kategoriyalar) na istak, na shubha, na xursandlik, na xafalikni ifodalay oladi. Ular faqat qandaydir mantiqiy munosabatlarni ifodalashi mumkin, ya'ni gapda grammatik kategoriya ema

I bobga xulosa

Ushbu bobni o'rganib chiqish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi :

1. Konseptning lisoniy moddiylashuvi ong va til tizimi o'rtasidagi hamkorlikning mahsuli hisoblanadi. Konsept shakllanishining boshlang'ich nuqtasi voqelik bo'lagi (predmed) haqidagi tasavvur – obrazning yuzaga kelishidir. Bu obraz oddiy sxema yoki shakl bo'lib qolmasdan, balki mazmunli hodisadir. Lekin, voqelik – ong – lisoniy belgi o'rtasidagi bunday uzviylikni oddiy takrorlash ko'rinishida talqin etmaslik kerak. Sababi, ong voqelikni lisoniy belgi vositasida oddiygina aks ettirmaydi, balki sub'yekt uchun muhim bo'lgan belgi-xususiyatlarni ajratadi, hamda ular asosida idrok etilayotgan ob'yekt (predmed, hodisa) ning namunaviy modelini yaratadi.

2. Konseptning lisoniy moddiylashuv jarayoni muhim mental bosqichni bosib o'tadi. Lisoniy voqelanish rejasi paydo bo'lgan zahotiyoy uni amalga oshirish uslubi

izlanadi. Reja hamda «so'zsiz» model nolisoniy yoki «botiniy nutq» jarayonida yuzaga keladi. Xullas, botiniy nutq jarayonida konsept, birinchidan, ma'lum mazmun shaklini olsa, ikkinchidan, lisoniy belgi tanlovi bosqichiga tayyorgarlik ko'radi.

3. Tilshunos uchun eng muhimi tafakkur birligi bo'lgan konseptning tilda (aniqrog'i nutqda) aks etishini ta'minlovchi strukturalar, harakatlar, qoidalarini aniqlashdir.

4. Modallik kategoriyasi tushunchasi tilshunoslikda bugun yoki kecha paydo bo'lgani yo'q. Modallik kategoriyasi va uning semantik xususiyatlari qadimgi yunon falsafa fani namoyondalari asarlarida ilk bor tadqiq qilingan. Yillar o'tishi bilan yurli mamlakatlarda turli olimlar bu mavzuga turlicha fikr bildirib kelganlar. Shu nuqtayi nazardan modallik kategoriyalarini uch xil nomlash mumkin : *zaruriyat*, *mumkinlik*, *imkoniyat*.

5. Modal konstruksiyaga bo'lgan munosabat bir xil emas. Modal konstruksiyaga ba'zi bir mantiqshunos olimlarimiz propozitsional qurilma yoki propozitsiya deb qarashadi. Bu tushunchaning bahsli, munozarali roli gaplarning mantiqiy tuzilishiga tegishli.

6. Roman tillarida modallik kategoriyasining qanday yo'llar bilan ifodalanishini, ularning o'xshashlik va noo'xshashlik tomonlarini tahlil qilib, shu orqali xulosa qiladigan bo'lsak, hamma roman tillari uchun lotin tiliga nisbatan yaqinlik tilning o'zagi umumiyligidan dalolat beradi. Ayniqsa, roman tillarining fe'l doirasidan lotin tili bilan bog'liqligi diqqatga sazovor bo'lib hisoblanadi. Ehtimol, roman fe'li materialida qardosh guruhlarda tillarning biralshishi ularning kelib chiqishi bilan bog'liq ekanligini ta'kidlash lozimdir. Hamma roman tillari keyinchalik zamon va mayl sistemasi asosida rivojlanmoqda. Roman tillarining eng asosiy va umumiy xususiyati shuki, ular boshqa hind-ovrupo tillari guruhlari oilasi bialn taqqoslanganda romanfe'li sistemasi o'zining yagonalik xususiyati, ya'ni yuqorida ko'rilayotgan modallik kategoriyalarining rivojlanganligi bilan farq qiladi. Demak, roman tillarida modallik kategoriyasining ifodalanishida lotin tili asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

II BOB

FRANSUZ FRAZELOGIYASINING ASOSIY TAMOIYILLARI

1. Fransuz frazeologiyasi alohida fan sifatida

Frazeologiyaning tilshunoslikda ma'lum bir fan sifatida paydo bo'lishi 1900 yillarning boshiga to'g'ri keladi va bu hodisa Shvetsariyalik olim Sh.Balli nomi bilan bog'liqdir. Binobarin, qadimdan tilshunoslar turg'un so'z birikmalarini sintaksis, leksikologiya va semantika singari fanlar obyekti sifati o'rganib kelishgan. Biroq Sh.Balli tilning bunday birliklarini maxsus fan, ya'ni frazeologiya nuqtayi nazaridan sistematik tarzda o'rganish lozimligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Bunga uning frazeologik konsepsiya ilgari surilgan *Précis de stylistique* (1905) va *Traité de stylistique française* (1909) nomli asarlari yaqqol misol bo'la oladi.

Sh.Balli FBlarning ichki va tashqi belgilarini farqlab ko'satishga muvaffaq bo'ldi. Ya'ni u ichki belgi asosida FBlar sematikasini, tashqi belgi asosida esa FBlar strukturasi nazarda tutadi. U FBlarning ichki belgisi ularning haqiqiy qiymatini ko'rsatuvchi, tashqi belgisi esa aldamchi ko'rinish ekanligini ta'kidlaydi. Shu tariqa Sh.Balli FBlarning mohiyati ularning semantik xususiyatlari orqali namoyon bo'lishini isbotlab berdi. Sh.Balli nazariyasini to'ldirgan holda M.S.Guricheva FBlarning semantik belgilarini ularning struktur belgilari bilan bog'lagan holda tadqiq etish maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi.

Frazeologiya va zamonaviy fransuz tilshunosli

Sh.Ballining frazeologiya va FBlar xususida ilgari surgan g'oyasidan so'ng fransuz tilshunosligida tadqiqotchilar o'rtasida munozara va mushohadalarning avj olishi kutilgan edi. Biroq, fransuz frazeologiyasi tarkibi xilma-xil va ancha boy bo'lishga qaramasdan, frazeologiyaning nazariy asoslarini o'rganishga hech qaysi bir tilshunos qo'l urmadi. Bu holat fransuz tilshunosligida FBlar mohiyatini aniq va yagona tarzda tushunish mavjud emasligi bilan izohlanadi. Fransuz tilshunoslari o'rtasida frazeologiyaning obyekti hisoblanmish FBlar turlicha talqin etilgan. Xususan,

mashhur fransuzcha frazeologik lug'atlar muallifi Moris Ra boshqa tadqiqotchilar singari FBlarni *expression, fazon de parler* kabi turli atamalar bilan nomlab kelgan. Tadqiqotchilar o'rtasidagi bunday nomutanosiblik, ya'ni FBlarni bunday tarzda keng talqin etilishi ularning yakdil bir qarorga jipslasha olmaganligidan va FBlarning nazariy asoslarini ochib bera olmaganligidan, qolaversa, frazeologik birliklar bilan nofrazeologik birliklar o'rtasidagi farqni anglab olish mumkn emasligidan dalolat beradi. Binobarin, Moris Raning frazeologik lug'atiga nazar tashlasak, u yerda metaforik ma'noli yakka so'zlarning ham frazeologik birlik tariqsida berilishi juda ajablanarlidir. Masalan, *bernique, un micmac, une poire* so'zlari shular jumlasidandir. Vaholanki, J.Maruzo o'zining lingvistik terminlar lug'atida *locution* atamasini ikki xil tadqin etadi. Birinchi holatda ushbu atama keng ma'no kasb etib, *iboraning* sinonimi sifatida qo'llanilsa, tor ma'no kasb etganda esa bir necha so'zlar yig'indisi ma'osini anglatadi.

FBlarni frazeologiyaning obykti sifatida ancha aniqroq va batafsil talqin etilishi P.Giro asarlarida o'z aksini topgan : *expression constituée par l'union de plusieurs mots formant une unité syntaxique et lexicologique*. U bu yerda quyidagi xususiyatlarni FBlar uchun xarakterli holat deb ta'riflaydi : 1.shakl va ma'no birligi – *unité de forme et de sens* 2. grammatik va leksik normalardan chekinish - *écart de la norme grammaticale ou lexicale* 3. maxsus metaforik ma'no - *valeurs métaphoriques particuliures*

Bu yerda birinchi va ikkinchi xususiyat FBlarga xos bo'lishi mumkin. Biroq, uchinchi xususiyat barcha FBlarga xosligi noo'rindir. Negaki, hatto ko'pchilik FBlar o'zlarida metaforik ma'noni aks ettirmasligi ham mumkin. Masalan, *bel et bien, peu ou prou* iboralaori shular jumlasidandir. P.Giro keltirgan ikkinchi xususiyat, ya'ni grammatik va leksik normalardan chekinish xususiyati FBlarning aynan o'ziga xosligini namoyon etuvchi holatlardan biri bo'lib hisoblanadi. U bu xususiyat zamirida arxaizm hodisasi mavjudligiga ishora qilgan.

Frazeologiya va FBlar borasida Sh.Balli ilgari surgan g'oya fransuz tilshunoslarining tadqiqot obyektiga asos bo'la olmadi. Afsuski, Sh.Balli g'oyasini rus tilshunoslari davom ettirdilar.

So'nggi vaqtlarda tilshunoslikda matn va lug'atlar (alohida janr matni sifatida) lingvistikasining jadal rivojlanishi kuzatilmoqda va matnning ichki lingvistik tipologiyasini har tomonlama o'rganish imkoniyatlari tug'ilmoqda. Hozirgi zamon umumiy, qiyosiy tipologik, roman, german, slavyan, turkiy tilshunoslikning yo'nalishlaridan biri - so'zning lingvistik statusi hisoblangan frazeologik birliklar (keyinchalik FB) muammosi alohida aspektni tashkil etadi.

Hozirgi vaqtda alohida tillar, jumladan, rus, ingliz, nemis va fransuz tillarining frazeologik sistemasini yoritish borasida anchagina tajriba orttirilgan. Biroq til sistemalar majmui ekan, u har qanday sistema o'zaro qarama–qarshi qo'yilishi yoki tilning boshqa sistemalari bilan qarama–qarshi o'rganilishini ham taqozo etadi. Bu holat frazeologik sistemani leksik sistema bilan qarama – qarshi qo'yilishini keltirib chiqaradi. Shuningdek, u frazeologiya leksik sistemaga kiradimi, (shu jumladan, leksik – semantik sistemaga) yoki u tilning alohida sistemasini tashkil etadimi, degan munozarali muammolarni hal etishda aynan leksema va FB o'rtasidagi munosabatlar muhim rol o'ynaydigan zaruriy material sifatida xizmat qiladi.

Frazeologiyaning hozirgi holati insonning bilish faoliyatini rivojlantirishdagi FBlarning genetik manbalarini qidirish bilan tavsiflanadi. Bu holat boshqa bir tomondan, ma'lum tillar guruhi va alohida konkret tillar frazeologiyasi shakllanishining ijtimoiy–tarixiy va milliy bog'liqligi jihatidan tadqiq qilinadi.

Shuni qayd qilish lozimki, frazeologiyaning shakllanishi va rivojlanishidagi ekstralingvistik omillarga bo'lgan qiziqish kun sayin oshib borayotganligiga qaramasdan, uni tarixiy manbalarga nisbatan diaxronik asosda, tarixiy–ijtimoiy nuqtayi nazardan o'rganishga kam e'tibor qaratilmoqda. Bu ayniqsa rus frazeologiyasi va bir qator g'arbiy Yevropa tillari frazeologiyasidan ancha ortda qolgan fransuz frazeologiyasiga tegishlidir.

Haqiqatan ham, A.G. Nazaryan bu borada ancha jiddiy kamchiliklarning o'rnini to'ldirdi va uning fransuz tarixiy frazeologiyasi sohasidagi tadqiqotlari bu sohada yangi sahifa ochdi. Bunda eng muhimi shundaki, romanist–olimlar nafaqat IX asrdan to XX asr frazeologiyasining tarixiy taraqqiyotidagi keng bo'shliqni to'ldirdi, balki birinchi bo'lib, turli xil bosqichning o'ziga xos xususiyatlarini birma – bir aniq tasvirlab berish orqali frazeologiya tarixini davrlarga bo'lish g'oyasini ilgari surdi.

Fransuz frazeologiyasining takomillashish yo'li, shubhasiz, A.G. Nazaryan tomonidan ochib berilgan. U sof FBlar turg'un birikmalar ichidagi maqollar sonini qisqartirish orqali (ulardagi tor tushunchalarda) tilda o'zlariga doimiy yo'l ochib olganini ko'rsatadi.

Frazeologiyaning boshqa fanlar bilan bo'lgan aloqasi

Frazeologiya filologik fanlarning barchasi bilan keng qamrovli tarzda bog'liq bo'lib, u boshqa fanlarning sintezi bo'lib hisoblanadi. Shu o'rinda frazeologiyaning leksikologiya, semantika, grammatika, stilistika, etimologiya va fonetika bilan bo'lgan aloqasi muhim ahaiyatga egadir.

Frazeologiyaning leksikologiya bilan bo'lgan aloqasi uning obyeksi hisoblangan so'zning FBlar yasashda "qurilish materiali" sifatida xizmat qilishi bilan bog'liq.

Ta'kidlash lozimki, so'z va FB o'rtasidagi munosabat muammosi leksik-semantik sath muammosini tilning umumiy sistemasi bilan qiyoslagan holda tadqiq etishda juda muhimdir. Shunga ko'ra frazeologik intensifikatorlar muammosi frazeologlarning diqqat e'tiborida bo'lgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Bir qator tadqiqotchilar o'z diqqat e'tiborlarini ko'pincha frazeologik tavsifga ega bo'lgan qiyosiy qurilmalarga qaratadilar. Hozirgi zamon fransuz tilida harakat yoki sifat belgilarini aks ettiruvchi qiyosiy FBlar ko'pchilikni tashkil etadi. Shulardan sifat, fe'l va ravishli intensifikatorlar sifatida xizmat qiladigan FBlar fransuz frazeologiyasida keng tarqalgandir. Turli xil so'z turkumlari vazifasidagi FBlar til

lug'at tarkibini boyitishga va frazeologik semantikasi nutqda faollashtirishga yordam beradi. Qolaversa, bunday frazeologik intensivatorlarning nutqda qo'llanishi borliqni obrazli tarzda tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Vaholanki, bu kabi obrazlilik xususiyati tilda faqat FBlargagina xos bo'lib, ular bilan bir qatorda turadigan leksik birliklar esa bundan mustasnodir.

Fransuz tili frazeologiyasida turli xil so'z turkumlari vazifasidagi frazeologik intensivatorlar sifatida xizmat qiladigan FB-larni ko'plab uchratish mumkin. Masalan: *les yeux de lynx* – o'tkir ko'zlar, *beton de Jacob* – sehirli tayoqcha (otli FB-lar); *faire la cour a qn.* - birov bilan lutfan gaplashmoq, *perdre la boule* - aqlini yo'qotmoq (fe'lli FB-lar); *tout le monde* – hamma, *quel que chose* – biror narsa (olmoshli FB-lar); *dans la journée* – kunduz kuni, *tout a coup* – birdan (ravishli FB-lar); *a cause de* – sababli, *grâce a* – tufayli (predlogli yoki bog'lovchili FB-lar) va hokazo.

V.V.Vinogradov til birliklarini o'rganish zaruratidan kelib chiqqan holda, so'zni o'rganish FB-lar ustida olib boriladigan so'z chatishmalari borasidagi kuzatishlar bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.¹

Shu narsani ta'kidlash joizki, so'z va FB munosabatlari haqidagi muammo ularning bir xil til sathiga yoki tilning har xil sathiga tegishlilik masalasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu muammo tilshunoslikda har xil hal qilingan. Biroq leksik birlik va FB o'rtasida o'xshash umumiy xususiyatlarning mavjudligini hamma e'tirof etadi.

Ba'zi tilshunoslar FB-lar va leksik birliklar o'rtasidagi jonli aloqalarni, shuningdek, leksik-frazeologik sistemaning mavjudligini tan olgan holda FB-lar hyech qachon leksik birliklarni takrorlamasligini ko'rsatib o'tadi.

N.M.Shanskiy leksik va frazeologik birliklarning funksional va mazmuniy jihatdan o'xshashligi ularning bo'linmas lingvistik turga mansubligi bilan

¹ Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины // Избр. труды, т. 3. – Лексикология и лексикография. – М., 1977. – С. 66.

bog'liqligidan kelib chiqqan holda, bu birliklar tilda bir butun holatda o'rganiladigan yagona leksik-frazeologik sistemani tashkil etadi, deb ta'riflaydi.¹

FBlar so'zlarning ekvivalenti ekanligini ko'rsatuvchi nazariya juda keng tarqalgan. Ushbu g'oya tarafdorlarining ko'pchiligi so'z va FBarning har xil ko'rinishga ega ekanligidan qat'iy nazar, ulardagi ma'noviy munosabatlarning ajralmasligiga va ularning funksional umumiylikka ega ekanligiga asoslanadi. Masalan, N. Umbarov va G. Hamroqulovlar bu muammoning aynan fransuz tili misolidagi yechimini quyidagicha isbotlaydi: "Frazeologik iboralar ko'pincha yagona so'zga ekvivalent bo'la oladilar. Masalan: *prendre une dūcision – dūcider, faire halte – s'arrkter, avoir peur – craindre, tout le monde – tous.*"¹

Biroq ushbu masala bo'yicha boshqacha yo'nalish ham mavjud. Bunda A.V.Kunin, L.I.Royzenzon va bir qator boshqa olimlarning fikriga qo'shilgan holda shuni ta'kidlash lozimki, so'z va FB bir qancha umumiy belgilarga ega, lekin shu bilan birgalikda ular o'rtasida ancha struktur, semantik farq mavjud bo'lib, bu farq struktur, semantik va stilistik rejada namoyon bo'ladi.²

FB va so'z o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganish ularni ekvivalentlik rejasi asosida o'rganishga qaraganda ancha sermahsuldir. A.V.Kunin ta'kidlaganidek, ekvivalentlik belgisi FB larni erkin so'z birikma va so'zlardan farqlashning aniq mezonini sifatida xizmat qila olmaydi.³

Bizningcha, ushbu qarash biz ko'rib chiqayotgan FB larga ham tegishlidir. Bunda A.V.Kunin hol vazifasida keladigan FB lar va erkin so'z birikmalar o'rtasidagi o'zaro munosabat muammosini hal qilayotib, ekvivalentlik mezonining asossizligiga nisbatan ikki xil mulohazani keltiradi: birinchidan, barcha FB lar ham bitta so'z orqali ifodalanavermaydi, ikkinchidan, erkin so'z birikmalar ham o'zlariga mos keladigan

¹ Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – М.: ВШ, 1969. – С.24.

¹ Умбаров Н., Хамрокулов Г. Хозирги замон француз тили лексикологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 86.

² Кунин А.В. Английская фразеология. – М.: ВШ, 1970. – С.12; Ройзензон Л.И. Лекции по общей и русской фразеологии. – Самарканд: СамГУ, 1973. – 223 с.

³ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: ВШ, 1986. – С.14.

alohida so'zlarga ega.⁴ Shuningdek, FBarning so'z ekvivalenti ekanligi haqidagi nazariya biroz asossiz bo'lib, bu FB va so'zni haddan tashqari yaqinlashtirishga olib keladi.

Umuman olganda, tilning bu ikki birligi o'rtasidagi ba'zi bir o'xshash belgilar bilan birgalikda ularni bir-biridan farqlovchi bir qator belgilar mavjudligini ko'rsatish mumkin. FB ham so'z kabi til elementi hisoblanadi, lekin ular turli sistema birliklarini tashkil etadi. So'z leksik sistema birligi bo'lib, u leksik ma'no va leksik turg'unlikka ega. FB frazeologik sistema birligi bo'lib, u frazeologik ma'no va frazeologik turg'unlikning bir butun faktorlar majmuyini o'z ichiga olgan maxsus turlarga ega.

An'anaga ko'ra, FB turg'un qurilma sifatida talqin qilinib, ulardagi umumiy ma'no o'z komponentlari ma'nosini aks ettirmaydi. Ba'zi tadqiqotchilar FBarni to'liq yoki qisman ma'no ko'chishini o'zlarida aks ettiradigan turg'un so'z birikmalar deb hisoblagan holda, FBarning umumiy ma'nosidagi mohiyatni talqin qilishga qarshi chiqadilar. Biroq shuni aytib o'tish kerakki, FBarni u yoki bu qurilmalar tarkibiga kiritish muammosi hanuzgacha o'z yechimini topgan emas. FBlar mohiyatini borliqdagi tilga xos hodisalar sifatida aniqlash ham anchagina munozarali muammolardan biridir. Masalan, fransuz tilida erkin so'z birikmalar FBlardan o'z leksik tarkiblarini o'zgartirganda struktur tuzilishini o'zgartirmasligi bilan farqlanadi. Bu shakliy obyektiv mezon albatta, FB va erkin so'z birikmasi o'rtasidagi chegarani aniqlashga yetarli darajada yordam bera olmaydi. Shuni qo'shimcha qilish kerakki, FB bo'laklarining substitusiyasi ham variantlanish huquqiga ega.

Yuqoridagilarga asosan, FBlardagi farqli belgilar sifatida idiomatiklik, turg'unlik, obrazlilik va boshqa xususiyatlarni ko'rsatish mumkin. Keltirilgan tamoyillar FBarning lingvistik mohiyatini aniqlashdagi turli xil izohlarga imkon yaratadi.

⁴ Кунин А.В. Ўша асар. – С.14-15.

FB va soʻz oʻrtasidagi munosabat muammosini ularning struktur, funksional va semantik xususiyatlarini qiyosiy tarzda tadqiq etish orqali namoyon etish mumkin. Shundagina FB soʻzning muqobili boʻla olmasligi oʻz isbotini topadi.

Yuqorida taʼkidlanganidek, soʻzlarning FBlar yasalishidagi qurilish materiali sifatida xizmat qilishi FBlarning toʻliq frazeologik maqomga ega boʻlishini taʼminlay olmaydi. Bu oʻrinda qurilish materiali sifatidagi soʻzlar yigʻindisidan hosil boʻlgan maʼno, yaʼni ularga xos semantika muhim ahamiyat kasb etadi. Bu hodisa frazeologiyaning sematika bilan boʻlgan aloqasini aks ettiradi.

FB komponentlari oʻrtasidagi maʼlum munosabat oʻz navbatida **grammatik** aloqalarga asoslanadi. Xususan, FB tarkibidagi komponentlarning oʻzaro sintaktik aloqada boʻlishi, artikl va predloglarning qoʻllanish holati, yaʼni normativ va okkazional hisoblangan turli xil morfologik va sintaktik oʻzgarishlarning mavjudligi shular jumlasidandir. (*faire un four – faire four (qizishib ketmoq); dur comme le fer – dur comme fer (temirdek mustahkam); ot soʻz turkumiga xos boʻlgan soʻzlarning birlik va koʻplikda qoʻllanishi: faire une gorge chaude – faire des gorges chaudes (masxara qilmoq);*

Frazeologiya **stilistika** bilan bevosita aloqador boʻlib, ular oʻrtasidagi munosabat FBlarga xos stilistik konnotasiya, yaʼni obrazlilik, ekspressiv-emosional kabi xususiyalar orqali namoyon boʻladi. Bundan tashqari, FBlar tilga xos funksional uslublarning alohida ajralib turuvchi maʼlum bir shakli boʻlib hisoblanadi. Bu kabi holatlar FBlarning stilistik xususiyatlarini ham chuqur oʻrganish mumkinligidan dalolat beradi. Binobarin, soʻnggi paytlarda frazeologiyada **frazeologik stilistika** boʻlimining paydo boʻlishi ham yuqoridagi singari holatlarga asoslanadi.

Frazeologiyani oʻrganishni uning kelib chiqish tarixisiz tasavvur qilish qiyin. Binobarin, FBlarning har qanday semantik va struktur xususyatlarini tahlil qilish shubhasiz, ularning shakllanish jarayoniga murojaat etishga olib keladi. Bu esa frazeologiyaning **etimologiya** bilan boʻlgan aloqasini koʻrsatadi.

Bir qarashdan frazeologiyani **fonetika** bilan umuman aloqasi yo'qdek ko'rinadi. Biroq FBlarning paydo bo'lishi ayrim hollarda fonetik faktorlarga ham asoslanadi.

Bundan tashqari, frazeologiya nofilologik fanlar bilan ham aloqadordir. Masalan, frazeologiya **psixologiya, tarix, adabiyot, etnografiya, mifologiya, folklor** singari sohalar bilan ham ma'lum darajada aloqadordir.

2. Fransuz frazeologiyasida modallik tushunchasi

A.G.Nazaryan modallik kategoriyasini frazeologik birikmalar asosida tahlil qilar ekan, uning fikricha, modal frazeologik birikmalar so'zlovchi o'z gapining mazmuniga bo'lgan munosabatini aks ettiruvchi yoki uning voqelik mazmuniga bo'lgan munosabatini aks ettiruvchi yoki uning voqelik mazmuniga bergan bahosi tushuniladi. Modal frazeologik birikmalar o'zining ob'yektiv borliqqa bo'lgan taxmin, haqiqat, istak kabi ma'nolarni ifodalashi mumkin.

A.E.Mamatov frazeologik birikmalarning funktsional – ekspressiv uslubiy xususiyatlaridan kelib chiqib, ularning modallik xususiyatiga, ya'ni *qiyoslash, o'xshatish, holat* kabi lingvistik kategoriyalarga ko'proq etibor beradi. Masalan : 1. *c'est un sale tems, dit Maillard, il pleut comme vache. Quelle nuit! (M.Ayme).* bu misolda ob-havoni obrazli tasvirlash uchun yozuvchi o'z qahramonlari nutqida modallik xususiyatiga ega bo'lgan *il pleut comme vache* (yomg'ir go'yo chelaklab quyayapti) – qiyoslash semantic kategoriyasini qo'llagan.

2. Lambourde. Le voila *qui tourney de l'oeil*, maintenant. Sacre joueur de jazz! Tu vas voir qu'on ne pourra pas l'interroger.

Ikkinchi gapda esa yozuvchi oddiy so'zlashuv nutqida o'z qahramonining holatini *qui tourne de l'oeil* (o'zidan, xushidan ketib qolmoq) tasvirlagan. Bu gapda ne pourra pas modal gapning qo'llanishi, ushbu sub'yektning holatini va modallik xususiyatini yanada ochib berishiga xizmat qilmoqda. Ikkala misolda ham ob'yektiv va sub'yektiv modallik kategoriyasi frazeologik birikmalar tarkibida kelib, ular so'zlovchining

ob'yektiv voqelikka munosabatini anglatadi va *qanday* savoliga javob berib, “holat” semantik kategoriyasini ifodalab kelmoqda.

Yuqorida berilgan modallik ifodalovchi frazeologik birikmalarning semantik tasnifidan kelib chiqib aytish mumkinki, bu til birikmalariga bo'lgan umumiy xususiyat ularning shakllarini semantik (jonli va jonsiz, qiyoslash, o'xshatish, holat) qayta o'zgartirib yuborishi va alohida ko'chma ma'no hosil qilishidir. Ko'pchilik tadqiqotchilar, asosan, frazeologik xarakterdagi qiyosiy qurilmalarga diqqat-e'tiborni qaratadilar. Shuni ta'kidlash joizki, fransuz tilida modal frazeologik birikmalarning keng tarqalganligi va ko'p qo'llanishiga qaramasdan, F.B larning modallik xususiyatlari hozirgacha yetarli darajada o'rganilmagan. Bu esa alohida ilmiy tadqiqotni talab qiladi.

II bobga xulosa

Ushbu bobni o'rganib chiqish jarayonida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Til sistemalar majmuyi ekan, u har qanday sistema o'zaro qarama - qarshi qo'yilishi yoki tilning boshqa sistemalari bilan qarama – qarshi o'rganilishini ham taqozo etadi. Bu holat frazeologik sistemani leksik sistema bilan qarama – qarshi qo'yilishi keltirib chiqaradi. Shuningdek, u frazeologiya leksik sistemaga kiradimi, (shu jumladan, leksik semantik sistemaga) yoki u tilning alohida sistemasini tashkil etadimi, degan mulohazali muammolarni hal etishda aynan leksema va FBlar o'rtasidagi munosabatlar muhim rol o'ynaydigan zaruriy material sifatida xizmat qiladi.

